BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.FM/T.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

HAMROYEVA ZILOLA QAHRAMONOVNA

QOVUSHQOQ-ELASTIK TO‘LDIRUVCHILI SILINDRIK QOBIQDA XOS TO‘LQIN TARQALISHI VA DINAMIK KUCHLANGANLIK-DEFORMATSIYALANGANLIK HOLATI

01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

UDK: 539.3

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.FM/T.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

HAMROYEVA ZILOLA QAHRAMONOVNA

QOVUSHQOQ-ELASTIK TO‘LDIRUVCHILI SILINDRIK QOBIQDA XOS TO‘LQIN TARQALISHI VA DINAMIK KUCHLANGANLIK-DEFORMASIYALANGANLIK HOLATI

01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/FM1359 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Buxoro davlat texnika universiteti veb-saytida (www.bsti.uz) va "ZiyoNet" ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Teshaev Muhsin Xudoyberdiyevich**
fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar: **Mirzayev Ibraxim**
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Ismayilov Kubaymurat
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Qozog'iston Respublikasi Turkestan shahridagi Xoja Ahmad Yassaviy nomli Xalqaro qozoq-turk universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.FM/T.16.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "30" yanvar soat 9^{00} dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100118, Buxoro shahar, Qayum Murtazoyev ko'chasi, 15-uy. Tel.: (+99865) 223-78-84; faks: (+99865) 223-79-72, e-mail: bsti_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat texnika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 412 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100118, Buxoro shahar, Qayum Murtozayev ko'chasi, 15-uy. Tel.: (+99865) 223-78-84.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 7-yanvar kuni tarqatildi.
(2025-yil 28-oktabrdagi 10-raqamli reyestr bayonnomasi).

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI * BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI *

B.S.Raxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi
texnika fanlari doktori (DSc)

R.A.Sobirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Z.I.Boltayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

KIRISh (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda qovushqoq-elastik to‘ldiruvchili konstruksiyalarda tashqi yuklanish ta’sirida ro‘y beradigan dinamik jarayonlarda energiya dissipatsiyasi samaralarini aniqlash uchun energiya-resurstejamkor texnologiya va texnika vositalarini qo‘llash yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida polimer ko‘p qatlamli plitalar va deformatsiyalanadigan muhit bilan o‘zaro ta’sir qiluvchi qobiqlardan yasalgan konstruksiyalarni zamonaviy mashinasozlik va aviasozlikda amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan zamonaviy mashina elementlari har xil dinamik (vibratsiyali va zarbali) kuchlar ostida ishlaydigan yupqa kompozit qovushqoq-elastik polimer materiallardan tashkil topgan texnika vositalari va qurilmalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda polimer qovushqoq-elastik qatlamli jismlar va konstruksiyalarni dinamik sharoitidagi kuchlanishlar konsentratsiyasining minimal taqsimlanishini ta’minlashda resurstejamkor texnologiyalar va texnika vositalarining yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, dissipativlik xususiyatlari turlicha bo‘lgan ko‘p qatlamli kompozit konstruksiyalarni hisoblash metodologiyasi va algoritmini ishlab chiqishga, qovushqoqlik parametrlarini hisobga olib konstruksiyalarning dinamik holatini baholash va energiya dissipatsiyasi samaralaridan foydalanib resurstejamkor, mustahkam qurilmalarni ishlab chiqishga qaratilgan masalalarni yechishga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda dissipativ bir jinsli bo‘lmagan mexanik sistemalarda dinamik jarayonlarni o‘rganishga yo‘naltirilgan maqsadli ilmiy izlanishlar mashinasozlikda ishlatiladigan materiallarning mustahkamligi va samaradorligini oshirishda keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida, jumladan, “…hududlarning “o‘sish nuqtalari”dan kelib chiqib, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini qurishga alohida e’tibor qaratish…”[1] bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, dinamik holatdagi materiallar zo‘riqishini hisoblashda matematik modellashtirish va foydalaniladigan materiallarning reologik xususiyatlarini hisobga olgan holda dasturiy ta’minot tizimlarini ishlab chiqishni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-maydagi PF-144-sonli “O‘zbekiston Respublikasi seysmik xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2023-yil 16-maydagi PQ-158-sonli “O‘zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2024-yil 17-apreldagi PQ-161-sonli “Bino va inshootlarning zilzilabardoshliligini

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

oshirish hamda seysmik xavfni monitoring qilish faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyat sohalariga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O’zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Quyidagi chet el olimlari qovushqoq-elastik uch qatlamli silindrik jismlarda to‘lqin tarqalishini ilmiy tahlil qilishgan: G.I.Petrashen, P.V.Krauklis, K.V.Frolov, A.N.Antonov, V.P.Matveyenko, I.N.Shardakov, E.I.Starovoytov, N.S.Anofrikova, T.Miker, A.Meytsler, R.M.Deyvis, R.Mitra, G.Kolskiy, Uayt, J.D.Axenbax, B.V.Shafer, R.I.San, A.A.Ilyushin, L.V.Brexovskix, A.S.Volmir, I.A.Viktorov, A.G.Gorshkov, M.D.Genkin, Y.I.Shemyakin, I.Y.Troyanovskiy, I.A.Kiyko, A.N.Guz, V.T.Grinchenko, G.L.Komissarova, U.K.Nigul, V.G.Gogoladze, L.A.Molotkov, Y.I.Novichkov va boshqalar.

Respublikamiz olimlaridan: X.A.Raxmatulin, M.T.Urazbayev, T.Sh.Shirinkulov, V.K.Kabulov, T.R.Rashidov, Y.N.Mubarakov, B.M.Mardonov, G.X.Xojmetov, A.A.Ishanxodjayev, T.M.Mavlonov, M.M.Mirsaidov, K.S.Sultanov, M.Mamatkulov, F.B.Badalov, A.Abdusatorov, I.I.Safarov, M.X.Teshayev, M.K.O‘sarov, Z.I.Boltayev, X.Xudaynazarov, Sh.S.Yuldashev va boshqalar materialning reologik xususiyatlarini hisobga olgan holda turli xil ta’sirlarda (yoki tashqi yuk bo‘lmagan taqdirda) plastinka va qobiqli mexanik sistemalarning tebranishlarini ilmiy tahlil qildilar.

Hozirgi vaqtda dissipativ bir jinsli bo‘lmagan mexanik sistemalarning tebranishlari bilan bog‘liq bir qator masalalar borki, ularni yechish dinamik jarayonlarning yangi qirralarini kashf etishga imkon beradi. Mashinasozlikda quvur nazariyasiga asoslangan masalalarni yechish metodikasi va algoritmlarini yaratish yordamida tebranishlar so‘nish intensivligini bir necha barobar oshirishga erishish mumkin. Bu esa konstruktiv elementlarning chidamliligi va umriboqiyligini ta’minlashga imkon beradi. Dissipativ bir jinsli bo‘lmagan mexanik sistemalar uchun relaksatsiya yadrosini va uning reologik parametrlarini tanlash, ularning chastota va dempferlash koeffitsiyentiga ta’sirini o‘rganish muhim masala hisoblanadi. Bular yuqorida keltirilgan muammolarni yechish uchun qo‘shimcha ilmiy izlanishlar olib borishni talab etadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat texnika universiteti “Aniq fanlar” kafedrasinig bajarilishi 2022 – 2025 yillarda mo‘ljalangan “Fizika-mexanikaviy jarayonlarni matematik modellashtirish” mavzusidagi dasturi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi dissipativ bir jinsli bo‘lmagan to‘ldiruvchili silindrik qobiqda xos to‘lqin tarqalishi va dinamik kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holati masalalarini o‘rganish metodikasi va algoritmini yaratish hamda mavjud nazariya ilmiy asoslarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

materiallarning qovushqoq-elastik xususiyatlarini hisobga olgan holda to‘ldiruvchili silindrik qobiqda xos to‘lqin tarqalishi va dinamik kuchlanganlik-deformatsiya holati masalalarining matematik qo‘yilishi, yechish usullari va algoritmini ishlab chiqish;

strukturaviy dissipativ bir jinsli bo‘lmagan silindrik mexanik sistemalar uchun, tebranishlar chastotasining bir nechta modalarining (haqiqiy va mavhum qismlar) fiziko-mexanikaviy va geometrik parametrlarga bog‘liqligini qiyosiy baholash;

vibratsion yuklanishda to‘ldiruvchili silindrik qobiqning rezonans holatni baholash uchun amplituda-chastota orasidagi bog‘lanishlarga mexanik va geometrik parametrlar ta’sirini baholash;

strukturaviy dissipativ bir jinsli bo‘lmagan to‘ldiruvchili silindrik qobiqning ichki dinamik bosim yuklanishidagi dinamik kuchlanishlar-deformatsiya holatini fiziko-mexanikaviy va geometrik parametrlarga bog‘liqligini qiyosiy baholash.

Tadqiqotning obyekti sifatida qovushqoq-elastik to‘ldiruvchili silindrik qobiq olingan.

Tadqiqotning predmetini qovushqoq-elastiklik xususiyatlarini hisobga olgan holda to‘ldiruvchili silindrik qobiqning dinamik nazariyasini rivojlantirish, hisoblash metodikasini hamda spektral masalalarni o‘rganish uchun kompleks algebraga asoslangan algoritmni ishlab chiqishni tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida dissertatsiya ishida olingan xususiy hosilali integro-differensial tenglamalar sistemasini yechish uchun “muzlatish” usuli, o‘zgaruvchilarni ajratish usuli, Myuller, Gauss, Laplas va Godunovning ortogonal progonka usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bora qovushqoq-elastik to‘ldiruvchili silindrik qobiqda xos va noturg‘un to‘lqin tarqalishi masalalari irsiy deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasining ko‘chishlar orqali ifodalangan Lame tenglamasi, sirt va kontakt shartlarini hamda cheksizlikda to‘lqin so‘nishini hisobga oluvchi shartlar asosida matematik qo‘yilgan, matematik fizika va deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi usullari asosida masalalarni yechish uslubiyoti va algoritmi ishlab chiqilgan;

strukturaviy bir jinsli bo‘lmagan to‘ldiruvchili silindrik qobiq uchun tebranishlarning dempferlash koeffitsentlarining fizik-mexanikaviy va geometrik parametrlarga bog‘liq o‘zgarishi monoton bo‘lmagan funksiyalar orqali ifodalanishi hamda dissipativ bir jinsli sistemaga nisbatan radikal o‘zgarishi aniqlangan;

Kirxgof-Lyav va uch o‘lchovli nazariya asosida olingan xos chastotalar va so‘ndirish koeffitsiyentlari orasidagi farq to‘lqin sonining kichik qiymatlarida juda kam (2% gacha), yuqori ($n>5$) qiymatlarda esa 20% gacha bo‘lishi sonli eksperiment natijalari asosida topilgan;

to‘ldiruvchili silindrik qobiq o‘rnida silindrik doiraviy ko‘ndalang kesimli sterjenli nazariyasini qo‘llanilishi ko‘chish va kuchlanishlar amplitudalarini topishda 20% gacha xatolik berishi chegaraviy masala uchun olingan dispersion tenglama munosabatlaridan aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Yaratilgan metodika to‘ldiruvchili qobiqlar kontaktidagi yoriqlar bir jinsli bo‘lmagan qismlarni topishda, qatlamli konstruksiyalarning yangi avlodini yaratishga xizmat qiladi hamda to‘lqin tarqalashi yo‘nalishiga bog‘liq bo‘lgan muhandislik ishlarini aniq hisoblashga imkon bergan.

Tadqiqot natijalarning ishonchliligi masalalarning korrekt qo‘yilishi, matematik munosabatlarning qat’iyligi, ma’lum va keng qo‘llaniladigan yechish usullaridan foydalanish va masalalarning boshqa olimlar tomonidan olingan yechimlari bilan taqqoslashlar orqali izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati – to‘ldiruvchili qovushqoq-elastik silindrik qobiqning erkin tebranishlari va dinamik kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holati nazariyasining rivojlanishiga hissa qo‘shishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati – dissipativ bir jinsli bo‘lmagan mexanik sistemalarda so‘nish dekrementi koeffitsiyentining geometrik va fizik-mexanik parametrlarga bog‘liq o‘zgarishi munosabatidan o‘rganilayotgan sohada energiyani boshqarish imkonini beradi. Bu esa titrashlarni kamaytirishda ham ishlab chiqilgan algoritm va dasturdan foydalanishga imkon berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. To‘ldiruvchili qovushqoq-elastik silindrik qobiqda chiziqli erkin va majburiy to‘lqin tarqalishi masalalarining ilmiy asoslarini inobatga olgan holda hisoblash usuli, algoritmi va dasturi bo‘yicha olingan natijalar asosida:

silindrik qobiqning gruntli muhit bilan o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda dinamik jarayonlarni hisoblash usullaridan 2022-2023 yillarda Abu Rayxon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan IL-5321091543 “Tojikiston qishloq hududlaridagi turar joy binolari zilzilabardoshligi (Osiyo taraqqiyot banki Xalqaro loyihasi doirasida) mavzusidagi innovatsion loyihasida foydalanilgan. Natijada, garmonik to‘lqinlar ta’sirida hosil bo‘ladigan rezonans tebranishlar sohalarini oldindan aniqlash imkoniyati hamda kuchlanish amplitudalari parametrlarini tanlash hisobidan 15-20% gacha kamaytirish imkoniyati yaratilgan.

suyuqlikli polimer qobiqdagi energiya dissipatsiyasi intensivligini oshirish usullaridan 2022-2024 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutida bajarilgan № IL-21071166-sonli “Shamolning past tezligi uchun mo‘ljallangan vertical o‘qli shamol turbinasini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyihasini bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutining 2-dekabr, 2025-yildagi №16023 sonli ma’lumotnomasi). Natijada, dissertatsiyada olingan ilmiy natijalarning qo‘llanilishi orqali rezonans sohasidagi tebranishlariga oldingi mavjud bo‘lgan hisoblash metodiga qaraganda 20 % kamaytirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola va 1 ta monografiya nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, toʻrt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 105 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligi va zaruriyati asoslab berilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari shakllantirilgan. Tadqiqotning Oʻzbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga muvofiqligi koʻrsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning ilmiy va amaliy ahamiyatlari yoritilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, ishning aprobatsiyasi, chop etilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi va hajmi boʻyicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Qovushqoq-elastik toʻldiruvchili silindrik qobiqda xos toʻlqin tarqalishi va dinamik kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini oʻrganishga doir adabiyotlar tahlili”** deb nomlangan birinchi bobi uchta paragrafdan iborat boʻlib, birinchi paragrafda qovushqoq-elastik toʻldiruvchili silindrik qobiqda xos toʻlqin tarqalishi**,** dispersiya tenglamalar va uning ildizlarini topishga bagʻishlangan adabiyotlar tahlili keltirilgan. Xususan, tadqiq qilingan erkin toʻlqinlar va ularning chastota xarakteristikalarini tahlil qilish rezonans holatlarga va toʻlqin soʻnishini oʻrganishga bagʻishlangan ilmiy ishlar solishtirma tahlil qilingan. Klassik toʻlqinlar, ularning mavjud boʻlish oraliqlari ham chuqur tahlil qilingan. Ikkinchi va uchinchi paragrafda ichida suyuqligi bor boʻlgan silindrik qobiqda (qovushqoq-elastik) toʻlqin tarqalish masalasini oʻrganishga bagʻishlangan adabiyotlar tahlili keltirilgan. Suyuqlikli silindrik qobiqda toʻlqin tarqalishi (yoki harakati) quyidagi bir nechta yoʻnalishga boʻlib oʻrganiladi:

birinchidan, qobiq–suyuqlik mexanik sistemasining erkin tebranishlari (chekli uzunlikdagi silindrik suyuqlikli qobiq) yoki toʻlqin tarqalishi (cheksiz uzun) muammolari;

ikkinchidan, bu mexanik sistemaning turgʻunligi muammosi masalalari;

uchinchidan, bunday sistemadagi turgʻun boʻlmagan toʻlqinlarning tarqalish jarayoni;

toʻrtinchidan, bunday mexanik sistemalarda fizik maydon ta’siridagi jarayonlarni oʻrganish muammolari. Silindrning dinamik tenglamasi sifatida momentsiz nazariya asosida olingan tenglamalardan foydalanilgan.

Dispersion tahlil asimptotik formulalardan foydalanib amalga oshirilgan. Dissipativ bir jinsli va bir jinsli bo‘lmagan to‘lqin o‘tkazgich (yoki mexanik sistema)ning dissipativlik xossasi dissipativ bir jinsli va bir jinsli bo‘lmagan mexanik sistemalar uchun qiyosiy to‘liq o‘rganilmagan. Ularning kompleks tekislikdagi disspersion munosabatlarini baholovchi kattaliklar yoki munosabatlar ishlab chiqilmagan. To‘ldiruvchili silindrik qobiq uchun olingan dispersion tenglamaning faqat maxsus funksiyalar yordamidagi asimptotik ifodalari olinganligi, Kirxgof-Lyav va Timoshenko gipotezalarini qo‘llash chegarasi qiyosiy topilmaganligi va kompleks faza tezligi va tebranishlar formasini o‘rganishga kam e’tibor berilganligi yuzasidan xulosa qilingan. Dispersion munosabatlardan (dissipativ bir jinsli va bir jinsli bo‘lmagan mexanik sistemalar uchun) kelib chiquvchi, bir nechta kompleks modalar parametrlar bog‘liq o‘rganilmagan va ularni tadqiq etish uchun spektral masala qo‘yilmagan, yechish metodikasi, algoritmi va dasturi ishlab chiqilmaganligi xulosa qilingan.

Dissertatsiyaning **“Qovushqoq-elastik to‘ldiruvchili silindrik qobiqda xos to‘lqin tarqalishi va dinamik kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holati”** deb nomlangan ikkinchi bobi to‘rtta paragrafdan iborat bo‘lib, qovushqoq-elastik to‘ldiruvchili silindrik qobiqning xos tebranishlari va dinamik kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holati masalalarining qo‘yilishi, yechish metodikasi va algoritmi keltirilgan. Silindrik qobiqning ikki xil holatdagi xos tebranishlar masalasini ko‘ramiz. Faraz qilamiz, silindrik qobiq cheksiz uzun bo‘lsin, x o‘qi bo‘yicha. U holda silindrik qobiqda xos to‘lqin tarqalishini o‘rganish asosida har bir to‘lqin soniga mos keluvchi xos tebranishlarni o‘rganamiz. Agar to‘ldiruvchili silindrik qobiq chekli bo‘lsa, u holda qobiqning ikkala tomoniga yoki sirtiga mahkamlanganlik shartini qo‘yib xos tebranishlari o‘rganiladi. Silindrik qobiqning harakati kuchlanishlar holatini ifodalovchi harakat differensial tenglamalari ikki xil nazariya asosida olinadi. Bulardan birinchisi – qobiq tenglamasi qobiq nazariyasi asosida olinadi. Cheksiz uzun deformatsiyalanuvchi (qovushqoq-elastik) radiusi R, qalinligi h_0, zichligi ρ_0, Puasson koeffitsiyenti ν_0 (qovushqoqlikni ifodalovchi parametrlar berilgan) bo‘lgan silindrik qobiq qovushqoq-elastik muhit yoki ideal suyuqlik bilan to‘ldirilgan bo‘lsin. Shu silindrga xos (yoki garmonik) to‘lqinlarning tarqalishi masalasi o‘rganiladi. Qo‘yiladigan masala silindrik koordinatalar sistemasida (r,θ,z) yechiladi. Bunday qobiq ichki bosim kuchi (yoki o‘qlar bo‘yicha tarqalishi - p_r, p_θ, p_z) mavjud bo‘ladi. Bunday masalalar ideal va qovushqoq suyuqlikli qobiqlar uchun bir qancha olimlar tomonidan o‘rganilgan, ulardan yaqin bo‘lgan ba’zilarini keltiramiz. Ular cheksiz uzun silindrik qobiq (Kirxgof – Lyav gipotezasi) qovushqoq suyuqlik bilan to‘ldirilgan osesimmetrik masalalar yechgan. Ixtiyoriy parametrli to‘ldiruvchilar uchun bunday masalalar yechilmagan. Qobiq tenglamasini-differensial operatordan foydalanib (Kirxgof-Lyav va Timoshenko S.P. gipotezalari chegarasida) quyidagicha yozish mumkin:

$$L[1-\Gamma_0]\vec{u} = \frac{(1-\nu_0^2)}{E_0 h_0}\vec{p} + \rho_0 \frac{(1-\nu_0^2)}{E_0}\frac{\partial^2 \vec{u}}{\partial t^2}. \quad (1)$$



1-rasm.To‘ldiruvchili silindrik qobiq

Bunda $\Gamma_0 = i\Gamma^C(\omega_R) + \Gamma^S(\omega_R)$, $\Gamma_{\lambda\kappa}{}^C(\omega_R) = \int_0^\infty R_{\lambda\kappa}(\tau)\cos\omega_R\tau\, d\tau$, $\Gamma_{\lambda\kappa}{}^S(\omega_R) = \int_0^\infty R_{\lambda\kappa}(\tau)\sin\omega_R\tau\, d\tau$ – material relaksatsiya yadrosining mos ravishda, kosinus va sinus Furye tasvirlari, E_0 – Yung moduli; $\vec{u} = \vec{u}(u_r, u_\theta, u_z)$ – qobiq o‘rta sirtining ko‘chish vektori (Kirxgof – Lyav gipotezalari o‘rinli bo‘lganda), ko‘pincha quyidagicha belgilash kiritiladi: $(u_r = u;\quad u_\theta = \vartheta;\quad u_z = w)$, Timoshenko S.P. gipotezasi o‘rinli bo‘lganda ko‘chish vektori $\vec{u}$ o‘lchami beshga teng bo‘ladi. Timoshenko S.P. gipotezasi o‘rinli bo‘lsa, silindrik qobiqning o‘qi, yoyi va normali bo‘yicha yo‘nalgan ko‘chishlardan tashqari, o‘rta sirt normalining buralish burchagi o‘q va yoy yo‘nalishida olingani ham qo‘shiladi. Bu yerda silindrik qobiqning $\{u\ \ v\ \ w\}^T$ – ko‘chish vektori $R_{\lambda\kappa}(t-\tau)$ – yadro relaksatsiyasi; E_0 – oniy elastiklik moduli. Kirxgof–Lyav gipotezasiga asoslangan L differensial operatori quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$L = \begin{pmatrix} \dfrac{\partial^2}{\partial z^2} + \dfrac{1-\nu_0}{2R^2}\dfrac{\partial^2}{\partial\theta^2} & \dfrac{1+\nu_0}{2R}\dfrac{\partial^2}{\partial z\partial\theta} & \dfrac{\nu_0}{R}\dfrac{\partial}{\partial z} \\ \dfrac{1+\nu_0}{2R}\dfrac{\partial^2}{\partial z\partial\theta} & \dfrac{1+\nu_0}{2}(1+4a)\dfrac{\partial^2}{\partial z^2} + (1+a)\dfrac{\partial^2}{\partial\theta^2} & \dfrac{1}{R^2}\dfrac{\partial}{\partial\theta} - a(2-\nu)\dfrac{\partial^3}{\partial z^2\partial\theta} - \dfrac{a}{R^2}\dfrac{\partial^3}{\partial\theta^3} \\ \dfrac{\nu}{R}\dfrac{\partial}{\partial z} & \dfrac{1}{R^2}\dfrac{\partial}{\partial\theta} - a(2-\nu)\dfrac{\partial^3}{\partial z^2\partial\theta} - \dfrac{a}{R^2}\dfrac{\partial^3}{\partial\theta^3} & \dfrac{1}{R^2} + a\left(\dfrac{\partial^2}{\partial z^2} + \dfrac{1}{R^2}\dfrac{\partial^2}{\partial\theta^2}\right)^2 \end{pmatrix}.$$

Ideal suyuqlikli silindrik qobiqning harakat tenglamasi quyidagicha bo‘ladi:

$$\sum_{k=1}^{3}(L_{jk}u_k + \rho h\ddot{u}_j - \delta_{3j}\,p\big|_{r=R}) = 0,\ j = 1,2,3$$

$$\Delta p - \frac{1}{c^2{}_\infty}\ddot{p} = 0 \qquad (2)$$

bunda u_j – qobiq o‘rta sirti nuqtalarining ko‘chish vektori; $L_{j.k}$ – qobiq nazariyasining differensial operatori, Δ – Laplas operatori; δ_{3j} (j=1,2,3) –

Kronecker belgisi, r – gidrodinamik bosim, c_∞ – zichlik va suyuqlikda tovush to‘lqinining tarqalishi, ρ_0, R, h_0 material zichligi, radius va qobiq qalinligi. To‘ldiruvchining harakat differensial tenglamasi elastiklik nazariyasining Lame tenglamasi orqali olindi. Agar hajmiy kuch e’tiborga olinmasa, u holda qovushqoq-elastik to‘ldiruvchining harakat tenglamasi quyidagicha bo‘ladi:

$$\bar{\mu}_c \nabla^2 \vec{u} + \left(\bar{\lambda}_c + \bar{\mu}_c\right) grad\, div\, \vec{u} = \rho_c \frac{\partial^2 \vec{u}}{\partial t^2}, \tag{3}$$

Bunda $\bar{\lambda}_c = \lambda_{c0}\left[1 - i\Gamma_0^{\lambda}(\omega_R)\right], \bar{\mu}_c = \mu_{c0}\left[1 - i\Gamma_0^{\mu}(\omega_R)\right]$ – kompleks oniy elastiklik modullari; $R_{c\lambda}\left(t-\tau\right)$, $R_{c\mu}\left(t-\tau\right)$ – relaksatsiya yadrosi; $\vec{u}$– to‘ldiruvchi ko‘chish vektori; ρ_c – to‘ldiruvchi materialining zichligi; ν_c –Puasson koeffitsiyenti bo‘lib, o‘zgarmas yoki vaqtga bog‘liq emas deb olingan.

Qovushqoq suyuqlikli silindrik qobiqning, qobiq va suyuqlikning birgalikdagi harakatini o‘rganamiz: garmonik (yoki to‘lqinlar) z o‘qi bo‘yicha tarqaladi va vaqt bo‘yicha so‘nuvchi bo‘ladi. Hisoblashlarda, asosan, Rjanitsin-Koltunovning uch parametrli kuchsiz singulyar yadrosidan foydalanildi $R(t) = Ae^{-\beta t}/t^{1-\alpha}$. To‘ldiruvchi va qobiq sirtida qattiq mahkamlanganlik va erkin sathda kuchlanishlardan ozod bo‘lganlik sharti qo‘yiladi:

$$\begin{aligned} &r = R - h/2: \quad u = u_r; \quad \vartheta = u_\theta; \quad w = u_z; \\ &p_1 = -X - \sigma_{rx}; \quad p_2 = -Y - \sigma_{r\theta}; \quad p_1 = -X - \sigma_{rr}. \end{aligned} \tag{4}$$

Agar ko‘chish vektorini potensialli va solenoidli ko‘rinishda tasvirlasak, u holda muhitning ko‘chishi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$\vec{u} = grad\ \varphi + rot\,\vec{\psi}. \tag{5}$$

Bu yerda φ – bo‘ylama to‘lqin potensiali; $\vec{\psi}\,(\psi_r, \psi_\theta, \psi_z)$ – ko‘ndalang to‘lqin potensiali. Bu potensial funksiyalar dekart koordinatalar sistemasida quyidagi to‘lqin tenglamalarini qanoatlantiradi ((5) ni hisobga olganda):

$$\nabla^2 \varphi - \frac{1}{\bar{c}_p^2}\frac{\partial^2 \varphi}{\partial t^2} = 0; \quad \nabla^2 \psi_x - \frac{1}{\bar{c}_s^2}\frac{\partial^2 \psi_z}{\partial t^2} = 0; \tag{6}$$

$$\nabla^2\psi_\theta - \frac{\psi_\theta}{r^2} + \frac{2}{r^2}\frac{\partial \psi_r}{\partial \theta} - \frac{1}{\bar{c}_s^2}\frac{\partial^2 \psi_\theta}{\partial t^2} = 0; \ \nabla^2\psi_r - \frac{\psi_r}{r^2} - \frac{2}{r^2}\frac{\partial \psi_\theta}{\partial \theta} - \frac{1}{\bar{c}_s^2}\frac{\partial^2 \psi_r}{\partial t^2} = 0$$

$$u_r = \frac{\partial \varphi}{\partial r} + \frac{1}{r}\frac{\partial \psi_z}{\partial \theta} - \frac{\partial \psi_\theta}{\partial x}; \quad u_\theta = \frac{1}{r}\frac{\partial \varphi}{\partial \theta} + \frac{\partial \psi_r}{\partial x} - \frac{\partial \psi_z}{\partial r};$$

$$u_x = \frac{\partial \varphi}{\partial x} + \frac{\partial \psi_\theta}{\partial r} + \frac{\psi_\theta}{r} - \frac{1}{r}\frac{\partial \psi_r}{\partial \theta}; \quad \bar{c}_s^2 = c_s^2 \Gamma_\kappa; \ \bar{c}_p^2 = c_p^2 \Gamma_\kappa.$$

Bu yerda uzun tekis (yoki silindrik) jismlardan tashkil topgan dissipativ mexanik sistemalarda to‘lqin tarqalishi masalasi qaraladi (6) tekis masalaning yechimini quyidagi ko‘rinishda izlaymiz:

$$\left.\begin{aligned}
\phi_k(r,\theta,x,t) &= \sum_{n=0}^{\infty}\phi_n(\alpha_k r)\begin{Bmatrix}\cos n\theta\\ -\sin n\theta\end{Bmatrix}e^{\pm i\gamma_p x}e^{-i\omega t};\\
\psi_{rk}(r,\theta,x,t) &= \sum_{n=0}^{\infty}\psi_{nr}(\beta_k r)\begin{Bmatrix}\sin n\theta\\ -\cos n\theta\end{Bmatrix}e^{\pm i\gamma_p x}e^{-i\omega t};\\
\psi_{\theta k}(r,\theta,x,t) &= \sum_{n=0}^{\infty}\psi_{n\theta}(\beta_k r)\begin{Bmatrix}\cos n\theta\\ -\sin n\theta\end{Bmatrix}e^{\pm i\gamma_p x}e^{-i\omega t};\\
\psi_{zk}(r,\theta,x,t) &= \sum_{n=0}^{\infty}\psi_{nz}(\beta_k r)\begin{Bmatrix}\sin n\theta\\ \cos n\theta\end{Bmatrix}e^{\pm i\gamma_p x}e^{-i\omega t};
\end{aligned}\right\} \tag{7}$$

bu yerda n – butun son; γ_{pk} – to‘lqin tarqalishining doimiy soni; ω – kompleks xususiy chastota; $r=\dfrac{r_1}{a_0}, x=\dfrac{x_1}{a_0}$, ω – aylanma kompleks chastota, $\omega = 2\pi\nu$, ν – tebranishlar chastotasi; λ=2π/α – to‘lqin uzunligi, *s* – fazali tezligi, $\omega = \alpha c$.

Har bir komponenta uchun cheksizlikda $(r\to\infty)$ Zommerfeld shartlari qo‘yiladi. (7) ni (6) ga qo‘yib, quyidagi oddiy differensial tenglamalar sistemasini olamiz:

$$\frac{d^2\varphi_k}{dr^2}+\frac{1}{r}\frac{d\varphi_k}{dr}+\left(\alpha_k^2-\frac{n^2}{r^2}\right)\varphi_k=0;\quad \frac{d^2\psi_{xk}}{dr^2}+\frac{1}{r}\frac{d\psi_{xk}}{dr}+\left(\beta_k^2-\frac{n^2}{r^2}\right)\psi_{xk}=0; \tag{8}$$

$$\frac{d^2\psi_{\theta k}}{dr^2}+\frac{1}{r}\frac{d\psi_{\theta k}}{dr}+\frac{1}{r^2}\left(-n^2\psi_{\theta k}+2n\psi_{\theta k}-\psi_{\theta k}\right)\beta^2\psi_{\theta k}=0;$$

$$\frac{d^2\psi_{rk}}{dr^2}+\frac{1}{r}\frac{d\psi_{rk}}{dr}+\frac{1}{r^2}\left(-n^2\psi_{rk}+2n\psi_{\theta k}-\psi_{rk}\right)\beta^2\psi_{rk}=0;$$

bu yerda $\alpha_k^2=\dfrac{\overline{\Omega}_k^2}{\gamma_k^2}-\gamma_p^2;\quad \beta_k^2=\overline{\Omega}_k^2-\gamma_p^2;\quad \overline{\Omega}_k=\dfrac{\omega\alpha_k}{\overline{c}_{sk}};\quad \gamma_k^2=\dfrac{2(1-\nu_k)}{1-2\nu_k}.$

To‘lqinning vaqt bo‘yicha so‘nish darajasi logarifmik dekrement orqali xarakterlanadi

$$\delta_c = 2\pi\left|\mathrm{Im}\,\omega\right|/\mathrm{Re}\,\omega\ . \tag{9}$$

Agar to‘ldiruvchili silindrik qobiq ichki sirtida garmonik kuch qo‘yilsa, u holda qo‘yilgan masala quyidagi ko‘rinishdagi kompleks elementli algebraik tenglamalar sistemasiga keladi. Uni umumiy holda quyidagi ko‘rinishda yozish mumkin:

$$[Z]\{g\}=\{P\}, \tag{10}$$

$$[Z]=\begin{pmatrix}[Z_1] & & & 0\\ & [Z_2] & & \\ & & [Z_{(N-1)}] & \\ 0 & & & [Z_N]\end{pmatrix}$$

-blokli matritsa; $\lfloor Z_j\rfloor$ – o‘lchami umumiy holda 6x6 bo‘lgan matritsa, elementlari Bessel, Xankel funksiyalaridan iborat bo‘lgan n-tartibli bir va ikki jinsli funksiya; $\{g\}$ – ustun matritsa bo‘lib, noma’lum kattaliklardan iborat;

$\{P\}-\{0,0....0,P_{1N}\ ,\ P_{2N}\ ,\ P_{3N}\ ,\ P_{4N}\}^T$ – ustun vektor bo‘lib, tashqi ta’sir etuvchi yuk hisoblanadi.

Agar to‘ldiruvchili silindrik jismning ichki $r=a$ sirtida garmonik normal berilgan bo‘lsa, u holda

$$P_{rr}=P_r(r)\cos(n\varphi)e^{i\nu_\omega t},\ P_{r\varphi}=0,P_{rz}=0, \tag{11}$$

Bunda $P_r(r)$ – normal ta’sir etuvchi garmonik bosim kuchi amplitudasi, ν_ω – tashqi bosim kuchi chastotasi. Silindrik qobiqning tashqi sirtida tekis deformatsiya holati masalasi uchun kuchlanishlardan ozod bo‘lganlik sharti quyidagicha qo‘yiladi. Formal ravishda deformatsiyalanuvchi qobiq va to‘ldiruvchidan tuzilgan dispersion tenglama quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$\det\left[R(k,\omega)\right]=0\ . \tag{12}$$

k to‘lqin soni ω chastotasi orasidagi bog‘lanishni ifoda qiluvchi tenglama dispersion tenglama deyiladi. Umumiy holda (12) tenglama chiziqli bo‘lmagan algebraik tenglamani ifoda qiladi. Uning n-ta kompleks ildizi mavjud bo‘lishi mumkin. Ularni quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$k_j=k_j(\omega)=\mathrm{Re}k_j(\omega)+i\,\mathrm{Im}k_j(\omega),\ j=1...n.$$

Shunday qilib, bu bobda qovushqoq-elastik to‘ldiruvchili silindrik qobiqda xos va majburiy to‘lqinlarning tarqalishi masalasining matematik qo‘yilishi va yechish metodikasi keltirilgan. Qobiq va to‘ldiruvchi orasida (kontaktida) qattiq mahkamlanganlik (yoki sirpanuvchanlik) sharti qo‘yildi. Masalalari elastiklik nazariyasining Lame tenglamasidan Grin Lemb usuli bilan ko‘chish potensiallari orqali kompleks koeffitsiyentli to‘lqin tenglamasiga olib kelindi. To‘ldiruvchi va silindrik qobiqlarning harakat differensial tenglamasi Bessel (yoki Gelmgols) tenglamasiga olib kelindi va yechimi Bessel hamda Xankel funksiyalari orqali topildi.

Dissertatsiyaning **“Qovushqoq-elastik to‘ldiruvchili va muhit bilan aloqada bo‘lgan silindrik qobiqda xos to‘lqin tarqalishi”** deb nomlangan uchinchi bobda qovushqoq-elastik to‘ldiruvchili va muhit bilan aloqada bo‘lgan silindrik qobiqda xos to‘lqin tarqalishi masalalari o‘rganilgan. Qobiq va to‘ldiruvchining harakat differensial tenglamasi (1) va (3) keltirilgan. Asosiy hisob sxemasi 3-rasmda berilgan. Bu yerda qobiqlarning to‘ldiruvchi bilan o‘zaro ta’siri qobiqlarning o‘rta sirtlari bo‘ylab sodir bo‘ladi, deb faraz qilinadi. Rasmda keltirlgan a va b mos ravishda to‘ldiruvchining ichki va tashqi radiuslari hisoblanadi. To‘ldiruvchi qobiqlarga normal va urinma ta’sir ko‘rsatadi. O‘qqa simmetrik bo‘lmagan erkin to‘lqin tarqalish masalasi ko‘rib chiqiladi. O‘qqa simmetrik bo‘lmagan holat uchun yuqorida keltirilgan harakat differensial tenglamalari yechimlari quyidagicha bo‘ladi:

$$\begin{Bmatrix}U_k\\W_k\\u_x\\u_r\end{Bmatrix}=\begin{Bmatrix}U_{k,n}\\W_{k,n}\\U_{x,n}\\W_{r,n}\end{Bmatrix}cos(\,n\theta)e^{i(\gamma x-\omega t)},\ \begin{Bmatrix}V_k\\u_\theta\end{Bmatrix}=\begin{Bmatrix}V_{k,n}\\V_{\theta,n}\end{Bmatrix}sin(\,n\theta)e^{i(\gamma x-\omega t)}, \tag{13}$$

bunda $U_{k,n},W_{k,n},U_{x,n},W_{r,n},V_{k,n},V_{r,n}$ - qobiqlar va to‘ldiruvchini ko‘chish amplitudalari; $c_{0p} = \left[\frac{2G_{0s}(1-\nu_s)}{\rho_s(1-2\nu_s)}\right]^{1/2}$ $\gamma = 2\pi/\lambda_\omega$; $\lambda_\omega, c_\omega -$ to‘lqin soni, to‘lqin uzunligi va faza tezligi.



3-rasm. Ikki qatlamli to‘ldiruvchili qobiq

Agar (13) ni (1) va (3) ga qo‘ysak, quyidagi ko‘rinishdagi kompleks koeffitsiyentli algebraik tenglamalalar sistemasini olamiz:

$$-\left[\gamma^2\Gamma_k - \rho_{0,k}\frac{1-\nu_{0,k}}{2G_k}\omega^2 + \frac{1-\nu_{0,k}}{2a_k^2}\Gamma_k n^2\right]U_{k,n} + i\gamma\frac{(1+\nu_{0,k})n}{2a_k}\Gamma_k V_{k,n} + i\gamma\frac{\nu_{0,k}}{a_k}\Gamma_k W_{k,n} = 0; \quad (15)$$

$$\left[\left[\gamma^2\Gamma_k - \frac{\rho_{0,k}}{G_k}\omega^2\right]\frac{1-\nu_{0,k}}{2} + \frac{n^2}{a_k^2}\Gamma_k\right]V_{k,n} + i\gamma\frac{(1+\nu_{0,k})n}{2a_k}\Gamma_k U_{k,n} + \frac{n^2}{a_k^2}\Gamma_k W_{k,n} = 0;$$

$$\left(\frac{h^2}{12}\left[\gamma^2 + \frac{n^2}{a_k^2}\right]^2\Gamma_k - \rho_{0,k}\frac{(1-\nu_{0,k})}{2G_k}\omega^2 \quad + \Gamma_k\frac{1}{a_k^2}\right)W_{k,n} + i\gamma\Gamma_k\frac{\nu_{0,k}}{a_k}U_{k,n} + \frac{\Gamma_k n}{a_k^2}V_{k,n} = -\frac{(1-\nu_{0,k})}{2G_k h_k}q_{rk,n},$$

bunda $\Gamma_k = \left[1 - i\Gamma_0^g(\omega_R)\right]$.

Yuqoridagi (14) tenglamaga kiruvchi tashqi kuchlar quyidagicha bo‘ladi:

$$q_{rk,n} = -\frac{2G_{0k}\chi^2}{1-\nu_{0,k}}\left[1 - i\Gamma_0^g(\omega_R)\right]\frac{W_{k,n}}{h_k}; f(k) = e_3 - \nu_{0,k}\eta^2\frac{e_6}{\epsilon_k^2} + n^2\frac{e_5}{\epsilon_k^4 e_4};$$

$$e_1 = -\left[1 - \frac{1-\nu_{0,1}}{3}c_0^2\right]\eta^2 + \frac{1-\nu_{0,1}}{3}\frac{n^2}{\epsilon_k^2}; e_2 = \frac{1-\nu_{0,1}}{2}\left[1 - \frac{2}{3}c_0^2\right]\eta^2 + \frac{n^2}{\epsilon_k^2};$$

$$e_3 = \frac{\chi^2}{12}\left[\eta^2 + \frac{n^2}{\epsilon_k^2}\right] + \frac{1}{\epsilon_k^2} - \frac{1-\nu_{0,1}}{3}c_0^2\eta^2; e_4 = \frac{(1+\nu_{0,1})^2}{4e_1}\eta^2\frac{n^2}{\epsilon_k^2} - e_2;$$

$$e_5 = 1 - \frac{\nu_{0,1}(1+\nu_{0,1})}{2e_1}\eta^2; e_6 = \frac{e_5(1+\nu_{0,1})}{2e_1 e_4}\frac{n^2}{\epsilon_k^2} + \frac{\nu_{0,1}}{e_1}.$$

Bu yerda

$$c_1 = \frac{h}{R}, k_s = \frac{h_s}{h_2}, c_0^2 = \frac{3(2x + k_s)}{2x(1-\ n)}, x = \frac{\Gamma_0}{\Gamma_{0s}}, h_1 = h_2 = h,\ \Gamma_{01} = \Gamma_{02} = \Gamma_0,\ r_1 = r_2 = r.$$

Barcha parametrlar o‘lchamsiz ko‘rinishga keltirilgan. To‘ldiruvchini tenglamasi (3) ni Grin Lemb almashtirish orqali yechamiz. U holda ko‘chish vektori amplitudasini (13) ifodalardan foydalanib, quyidagi ko‘rinishda yozamiz:

$$U_{x,n}(r) = i\gamma\varphi_n + \frac{d^2\psi_n}{dr^2} + \frac{1}{r}\frac{d\psi_n}{dr} - \frac{n^2}{r^2}\psi_n,$$

$$V_{\theta,n} = -\frac{n}{r}\varphi_n + i\gamma\frac{n}{r}\psi_n - \frac{d\chi_n}{dr}, W_{r,n}(r) = \frac{d\psi_n}{dr} - i\gamma\frac{d\psi_n}{dr} + \frac{n}{r}\chi_n. \quad (15)$$

